

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

“Kiritdi”

O‘zbekiston davlat
jismoniy tarbiya va
sport universiteti rektori

R. Matkarimov



“ 18 ” 2025-y

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



2025-y

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi
Sport vaziri o‘rinbosari

Sh. Maxmudov



“ 18 ” 04 2025-y

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

61010200 - Sport faoliyati (basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay-tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snovbord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stend otish, o‘zbek jang sana’ti, kriket), ta’lim yo‘nalishlari uchun.

61010300 - Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta’lim yo‘nalishi uchun.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kuzatuv Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2025 yil ____dagi ____-sonli majlis bayoni.

O'zbekiston Respublikasi xududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish hamd natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me'yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" **PF-5924-son farmoni**, 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" **PQ-60-son qarori**, 2022-yil 3-noyabrda "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" **PQ-414-son qaror va farmonlari** ijrosini sifatli bajarish ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus filialidagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturlari sport maktablari hamda Respublika Olimpiy va paralimpiy sport turlariga tayorlash markazlarining jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan va abituriyentlarning jismoniy mashqlari bajarishdagi amaliy harakat ko'nikma va malakalarini baholashga mo'ljallangan.

Mazkur dasturlarni tuzishda sport assosatsiyalar, sport federatsiyalar, oliy sport mahorati maktablar va sport maktablar takliflari inobatga olingan hamda ular tomonidan taqrizlar berilgan.

Dastur 61010300–Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi (basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og'ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog'li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rum kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog' chang'isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snovbord, qo'l jangi, ayollar kurashi, figural sport, o'q otish va stendan o'q otish, o'zbek jang sana'ti, kriket, 61010300–Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kabi sport turlari bo'yicha (kasbiy) ijodiy imtihonlarni o'tkazish tartibi, abuturiyentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy mahorati, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar hamda baholash mezonlari o'z aksini topgan.

2025/2026 O'QUV YILI UCHUN **TAEKVONDO WTF** IXTISOSLIGIDAN KASBIY
(IJODIY) IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI
(Ixtisoslik bo'yicha maksimal ball - 93 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

**Taekvondo WT bo'yicha qo'llar, oyoqlar bilan zarba berish va qo'llar bilan to'siq
qo'yish texnikasini namoyish qilish**

1. Jangovar holat (Sogi) (jangovor holat texnikasini to'g'ri bajarish.) – maksimal 12 ball

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarini bajarishda quydagi xatolar bo'lishi mumkin, texnik harakatlarni noto'g'ri bajarganlik uchun quyida ko'rsatilgan ballar olib tashlanadi:

1. Oyoqlar orasi haddan tashqari kengligida muvozanat yoqolishi -1 ball balldan olib tashlanadi.

2. Oyoq uchlari tashqariga yoki ichkariga qaratilgan- 2 balldan olib tashlanadi.

3. Oldingi oyoqning tizzasi bukilmagan va orqa oyoq bukilgan -3 balldan olib tashlanadi.

4. Gavda oldinga egilgan- 2 balldan olib tashlanadi.

5. Oyoqlar orasi haddan tashqari keng yoki tor- 2 balldan olib tashlanadi.

6. Sonlar orqaga tortilgan yoki gavda oldinga egilgan- 2 balldan olib tashlanadi.

1. Qo'llar harakatlari texnikasi (Kibon Donchak)

Qo'llar bilan texnik zarbalarni to'g'ri va aniq bajarilishi baholanadi - **maksimal 12 ball**

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda quydagi xatolar bo'lishi mumkin, texnik harakatlarni noto'g'ri bajarganlik uchun quyida ko'rsatilgan ballar olib tashlanadi:

1. Zarba paytida tirsakni ko'tarish – 1 ball olib tashlanadi.

2. Bilak bog'ini bukilgan – 2 ball olib tashlanadi.

3. Zarba oldidan harakat yoki gavdani ko'tarib bajarilmasligi – 3 ball olib tashlanadi.

4. Zarba oldindan harakat yoki tananing aldamchi harakati bilan zarbani bajarish - 2 ball olib tashlanadi.

5. Mushtning panja qismini yuqoriga qaratmasdan zarba berish – 2 ball olib tashlanadi.

6. Musht markaziy chizmasiga, "BYONCHI" sektoriga aniq zarba bajarolmaslik – 2 ball olib tashlanadi.

**3. Oyoqlar bilan zarba harakatlarini turli sektorlarga aniq va texnik to'g'ri bajarish
(PAL CHAGI)**

Oyoqlar bilan zarba harakatlarini turli sektorlarga aniq va texnik to'g'ri bajarilishiga – **maksimal 14 ball.**

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda quydagi xatolar bo'lishi mumkin, texnik harakatlarni noto'g'ri bajarganlik uchun quyida ko'rsatilgan ballar olib tashlanadi:

1. Zarbadan keyin zarba beruvchi oyoq tiraluvchi oyoq yoniga qo'yish – 3 ball olib tashlanadi.

2. Zarba beruvchi oyoq zarbadan keyin yonga qo'yish - 3 ball olib tashlanadi.

3. Zarba paytida tizzani bukib uzoq muddat ushlab turish - 2 ball olib tashlanadi.

4. Zarba aniq ko'rsatilganidan keyin shu holatda to'xtasa - 2 ball olib tashlanadi.

5. Tananing yuqori qismiga zarba paytida muvozanatni yo'qotish, aniq zarba berish moljal burchagidan past bo'lsa – 4 ball olib tashlanadi.

4. Taekvondo WT dagi kompleks mashqlarni (Pumse) bajarish texnikasi.

Barcha texnik harakatlarni to'g'ri bajarganlik uchun - **maksimal 32 ball.**

Texnik harakatlarni noto'g'ri bajarganlik uchun quyida ko'rsatilgan ballar olib tashlanadi:

1) Pumse harakatlar sxemasini buzish - 10 ball olib tashlanadi.

2) Muvozanatni yo'qotish - 6 ball olib tashlanadi.

3) Kompleks mashqarni (pumse) bajarishda kuch va konsentrlanish - 6 ball olib tashlanadi.

4) Asosiy turishda harakatlanish texnikasi - 6 ball olib tashlanadi.

5) Harakatlarning ritmikligi - 4 ball olib tashlanadi.

5. Taekvondo WT qoidolari bo'yicha erkin jang (Kyorugi)

Erkin jangda (kyorugi) jangovar harakatlarining barcha texnik va taktik usullarini (razvedka harakatlari, aldash harakatlari, masofali manyor, hujum harakatlari, mudofaa harakatlari, qarshi hujum), himoya va hujumda oqilona va o'z vaqtida bajarilgan harakatlarni namoyishi qilganlik uchun - **maksimal 23 ball**:

1) ahamiyatsiz xatolar - 6 ball olib tashlanadi:

a) harakat va usullar texnikasini bajarishdagi ahamiyatsiz xatoliklar 3 ball.

b) taktik harakatlarni bajarishdagi ahamiyatsiz xatoliklar 3 ball.

2) ahamiyatli xatolar - 6 ball olib tashlanadi

a) kyorugi texnikasidagi xatoliklar 3 ball.

b) tayyorgarlik va manyovr harakatlarini qo'llanilmasligi 3 ball.

3) qo'pol xatolar -11 ball olib tashlanadi

a) harakat va usullar texnikasini bajarishdagi qo'pol xatoliklar 3 ball.

b) hujum va himoya harakatlarini bajarishdagi qo'pol xatoliklar 4 ball.

v) taktik harakatlarning yo'qligi 4 ball.

2025/2026 O'QUV YILI UCHUN **TAEKVONDO WTF** IXTISOSLIGIDAN KASBIY
(IJODIY) IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI
(Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maksimal ball - 63 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

1. 30 m. ga yugurish (sek.)

Erkaklar			
Ballar	Vazn toifasi		
	54-58 kg.	63-68-74 kg.	80-87+kg.
21	4.00	4.10	4.30
17	4.01-4.10	4.11 – 4.20	4.31-4.40
14	4.11-4.20	4.21- 4.30	4.41-4.50
11	4.21-4.30	4.31-4.40	4.51-4.60
9	4.31-4.40	4.41-4.50	4.61-4.70
4	4.41-4.50	4.51-4.60	4.71-4.80
0	4.51	4.61	4.81
Ayollar			
Ballar	Vazn toifasi		
	46-49 kg.	53-57-62 kg.	67-67+ kg.
21	4.60	4.70	4.80
17	4.61-4.70	4.71-4.80	4.81-4.90
14	4.71-4.80	4.81-4.90	4.91-5.00
11	4.81-4.90	4.91-5.00	5.01-5.10
9	4.91-5.00	5.01-5.10	5.11-5.20
4	5.01-5.10	5.11-5.20	5.21-5.30
0	5.11	5.21	5.31

Izoh: yuqori starda yuguriladi.

2. Joydan turib uzunlikka sakrash (sm.)


Erkaklar			
Ballar	Vazn toifasi		
	54-58 kg.	63-68-74 kg.	80-87+kg.
21	260	255	250
17	250-259	245-254	240-249
14	240-249	235-244	230-239
11	230-239	225-234	220-229
9	220-229	215-224	210-219
4	210-219	205-214	200-209
0	209	204	199
Ayollar			
Ballar	Vazn toifasi		
	46-49 kg.	53-57-62 kg.	67-67+ kg.
21	220	215	212
17	219-214	214-210	211-206
14	213-208	209-204	205-200
11	207-202	203-198	199-194


9	201-196	197-192	193-188
4	195-190	191-186	187-182
0	189	185	181

3. Gimnastik devorda oyoqlarni ko'tarib tushurish (90° da tizzalarni bukmasdan)
(martta)

Erkaklar			
Ballar	Vazn toifasi		
	54-58 kg.	63-68-74 kg.	80-87+kg.
21	45	43	41
17	42	40	38
14	39	37	35
11	36	34	32
9	33	31	29
4	30	28	26
0	29	27	25
Ayollar			
Ballar	Vazn toifasi		
	46-49 kg.	53-57-62 kg.	67-67+ kg.
21	40	38	36
17	37	35	34
14	34	33	32
11	32	31	30
9	30	29	28
4	28	27	26
0	27	26	25

Kafedra mudiri


Imzo


F.I.Sh